



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 9-oktabr

522-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 28-sentyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining soliq va bojxona imtiyozlarini berishni nazarda tutuvchi ayrim hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” 2024-yil 18-sentyabrdagi PF–140-son Farmoni ijrosi haqida”gi 447-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

Iqtisodiyotda raqobatni ta‘minlash, tadbirkorlik subyektlariga teng shart-sharoitlar yaratish, bozor munosabatlariga to‘liq o‘tishni jadallashtirish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining soliq va bojxona imtiyozlarini berishni nazarda tutuvchi ayrim hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” 2024-yil 18-sentyabrdagi PF–140-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 28-sentyabrdagi 447-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

- Namangan viloyati hokimining 2024-yil 28-sentyabrdagi 447-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-sentyabrdagi PF–140-son Farmoni bilan: Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Soliq qo‘mitasining 2025-yil 1-yanvardan boshlab: yo‘lovchilarni yagona tariflar bo‘yicha tashish xizmatlarini ko‘rsatish aylanmasi hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamoat birlashmalari yagona ishtirokchisi hisoblangan yuridik shaxslar tomonidan realizatsiya qilinadigan tovarlar va xizmatlar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha imtiyozlarni bekor qilishi; yangi barpo etilayotgan bog‘lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lashdan ozod qilish tarzidagi imtiyozni bekor qilgan holda, mazkur yer uchastkalari bo‘yicha soliq stavkasini 50 foizga kamaytirish to‘g‘risidagi takliflari ma‘qullanganligi; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 1-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritilganligi; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlari 2-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.
- Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov